

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI**

**VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**INFORMATIKA VA TABIIY FANLAR KAFEDRASI**

**KOMPYUTYER GRAFIKASI  
FANIDAN AMALIYOT VA LABORATORIYA ISHLARINI  
BAJARISH UCHUN USLUBIY KO'RSATMA  
(BARCHA BAKALAVR TALABALARI UCHUN)**



**PhotoShop**

**TOSHKENT – 2012**

Tuzuvchilar: Mamajanov R.Ya., Tursunova F.R., Xudoyberdiev S.A., Darvishev D.

«Kompyuter grafikasi» fanidan amaliyot ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma (1-qism) /Tuz: Mamajanov R.Ya. va boshqalar. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat inst -ti.- Toshkent, 2012.

Bu uslubiy ko'rsatmada rastrli kompyuter grafikasining eng ko'p tarqalgan Adobe Photoshop dasturi bilan tanishib chiqish bo'yicha amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Shuning bilan birga dasturda ishlash bo'yicha xam ko'rsatmalar, ya'ni bosh menu bo'limgari, uskunalar paneli, rasm chizish, matn yaratish va turli tahrirlash ishlarini bajarish xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

«Kompyuter grafikasi» fani turli texnik ta'lim yo'nalishlari jumladan televideniya, kino va boshqa kadrlarni tayyorlashda fundamental ahamiyatga ega bo'lgan mustaqil fan hisoblanadi.

Bakalavrlar nazariy olgan bilimlarini amaliy va laboratoriya ishlarini bajarishi natijasida o'z mutaxassisliklarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan to'laqonli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Kompyuter grafikasi» fanidan amaliy va laboratoriya ishlarini o'tkazishda nafaqat bakalavrda ta'lim olayotgan talabalarga, balki magistrlar, o'qituvchilar foydalanishlari uchun xam tavsiya etiladi.

«Informatika va tabiiy fanlar» kafedrasи. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-uslubiy kengashi karori asosida nashr etildi. ( - qaydnomasi, \_\_\_\_\_ )

Taqrizchilar:

1. TTYMI – dots. Ibragimov R.I.
2. TATU - dots. Xaydarova M.Y.

## ADOBE PHOTOSHOP grafik dasturida ishlash

ADOBE PHOTOSHOP Windows muhitida ishlovchi kompyuterlar uchun mo‘ljallangan elektron ko‘rinishdagi fototasvirlarni tahrir va dizayn qiluvchi dasturdir.


Adobe Photoshop tasvir tahrir qiluvchisi yordamida fotosuratlarga qo‘srimcha o‘zgartirishlar kiritish, fotosuratdagi dog‘larni o‘chirish va eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn kiritish, qo‘srimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni o‘zgartirish, almashtirish imkonи mavjud. Adobe Photoshop dasturi imkoniyatlari keng qamrovli bo‘lib, kitoblar, gazeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda katta qulayliklar yaratadi.

Adobe Photoshop ayniqsa jurnalislarning, rassomlarning ijodiy imkoniyatlarini to‘la amalga oshirishlarida yordam beradi. Jurnalistika va bevosita matbuot yoki nashriyot sohasiga aloqador bo‘lgan shaxslarning mazkur dastur bilan ishlashni bilishi ular uchun qo‘srimcha imkoniyatlarni yaratib beradi. Adobe Photoshop dasturi quyidagicha ishga tushiriladi:

1. Pusk menyusi **Programmi** yoki **Vse programmi** bandining Photoshop CS belgisida «sichqoncha» ni bosiladi.


2. Windows ishchi stolida mavjud Adobe Photoshop uchun maxsus belgida «sichqoncha» ning chap tugmasi ikki marta bosiladi.

Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgandan so‘ng ekranda Adobe Photoshop tasvir tahrir qiluvchi oynasi hosil bo‘ladi.



Dasturdan chiqish uchun quyidagi usullarni biridan foydalanish mumkin:

1. **Alt + F4** tugmalarini birligida bosish.
2. **Fayl** menusidagi **Vixod** buyrug‘ini tanlash bilan.
3. Ekranning yuqori qismi o‘ng burchagida joylashgan **X** belgisini bosish yoki **Zakrit** buyrug‘ini bajarish bilan. Dasturni yopishda qiyidagi so‘rov paneli ochiladi va bu savollarga



**ДА** – kiritilgan matni o‘zgarishlarni saqlash va dasturidan chiqish uchun.

**NET** – kirtilgan matnda o‘zgartirishlar saqlanmagan xolda dasturidan chiqish uchun.

**Otmena** - dasturda ishlashni davom ettirish uchun.

Adobe Photoshop oynasining yuqori qismida sarlavha satr va Windowsga xos elementlar joylashadi. Sarlavha satridan so‘ng bosh menu satri joylashadi. Menyudagi kerakli buyruqlarni ish vazifasiga mos buyruqlarni tanlashingiz mumkin.

Adobe Photoshop dasturi menyusi 9 banddan iborat. Har bir menu tarkibida ochiladigan menu banddlari mavjud. Ularni ko‘rish cursor yordamida amalga oshirishladi. Quyida asosiy menu va eng ko‘p qo‘llaniladigan buyruqlarning qisqacha tavsifi keltiriladi.

#### **FAYL menyusi quyidagi buyruqlardan iborat:**

Noviy (Ctrl+N)	Yangi fayl yaratish.
Otkit(Ctrl+O)	Bu buyruq yordamida diskda m avjud fayllar ochiladi.
Otkrit kak (Alt+Ctrl+O)	Faylni qanday ko‘rinishda ochishni tanlash.
Soxranit (Shift+ S)	Faylga nom berish
Soxranit kak	Faylni xotiraga boshqa nom bilan (Shift+Ctrl+S) saqlash
Soxranit Kopiyu (Alt+Ctrl+S)	Tasvir nusxasini xotiraga saqlash.
Vernut	Tasvirning dastlabki holatiga qaytish.
Pomestit	Boshqa mustaqil fayl bilan birlashtirish.
Import	Boshqa direktoriyada joylashgan faylni Adobe Photoshop dasturiga olib kirish.
Eksport	Tasvirni boshqa dastrularga jo‘natish.
Fayl informatsiya	Fayl haqidagi malumotlarni kiritish.
Ustanovka stranitsi	Ochilgan fayldagi betini shaklini (Shift+Ctrl+P) tanlash.
Pechat (Ctrl+P)	Tasvirni printerga jo‘natish.
Predpochteniya	Adobe Photoshop dasturini kerakli tartibda sozlash.
Nastroyka sveta	Tasvir ranglarini sozlash.
Adobe online	Internet bilan bog‘lanish.
Vixod (Ctrl+Q)	Dasturdan chiqish.

#### **Pravka menyusi** quyidagi buyruqlardan iborat:

Vernut (Ctrl+Z)	Tasvir ustida bajarilgan oxirgi amalni bekor qilish.
Rezat (Ctrl+X)	Tasvirning ajratilagan qismini qirqib olish va kerakli joyga qo‘yish yoki butunlay qirqib tashlash.
Kopirovat (Ctrl+C)	Tasvirni belgilangan qismini nusxaga olish.
Vstavit (Ctrl-V)	Xotiraga olingan tasvirni belgilangan joyga qo‘yish.
Vstavit V (Shift+Ctrl+V)	Tasvirda belgilangan maydonni tozalash, o‘chirish.
Ochistit	Bunda ichirilgan maydon fon rangiga bo‘yaladi.
Zalit	Tasvir yuzini rang bilan bo‘yash.
Shtrix	Tasvirda belgilangan maydonni shtrixlab ko‘rsatish.
Transformatsiya (Ctrl+T)	Tasvir shaklini o‘zgartirish.
Transform	Tasvir shaklini turli ko‘rinishlarda o‘zgartirish.
Ochistka	Istoriya darchasida tasvir olib borilgan o‘zgartirish amallarini butunlay o‘chirish. Bu amal bajarilgandan sing o‘zgartirishlarni ortga qaytarish mumkin emas.

#### **IZOBRAJENIYA menyusi** quyidagi buyruqlardan iborat:

Rejim	Rang modellarni o‘zgartirish.
Nastroyka	Tasvir ranglarini sozlash.
Dublikat	Tasvirdan nusxa olish.
Nalojit izobrajeniye	Tasvirni qo‘srimcha ranglar bilan boyitish.

Vichislit	Tasvirdagi ranglar kanallarni o'chirish.
Razmer izobrajeniya	Tasvir shaklini va o'lchamlarini o'zgartirish.
Razmer xolsta	Tasvir ramkasi o'lchamlarini o'zgartirish.
Obrezaniye	Belgilangan maydondagi tasvirni kesib olish.
Perevernut xolst	Xolstni soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarshi 180, 90 gradusga burish.
Gistrogramma	Tasvirdagi ranglar miqdori haqidagi ma'lumotlar darchasi.

### Sloy menyusi tarkibidagi qo'shimcha buyruqlar

Noviy	Yangi qatlamni tashkil qilish.
Dublikat sloya	Qatlam nusxasini xosil qilish.
Udalit sloy	Mavjud qatlamni muvaqqat xotiradan o'chirish.
Effekti	Qatlamga turli effektlarni qo'yish.
Gruppa s predidushim (Ctrl+G)	Bir nechta qatlamlarni gruppalash.
Razgrupirovat(Shift+Ctrl+G)	Gruppalangan qatlamlarni bir-biridan ajratish
Skleit vse sloi	Barcha qatlamlarni birlashtirish.

### VIDELIT menyusi quyidagi buyruqlardan iborat :

Vse (Ctrl+A)	Tasvirni butunlay belgilash.
Ubrat videleniye (Ctrl+D)	Tasvirning belgilangan qismini olib tashlash.
Videlit zanovo (Shift+Ctrl+D)	Qaytadan belgilash.
Obratno (Shift+Ctrl)	So'ngi bajarilgan amalgaga qaytarish.
Svetovoy ryad	Ranglar qatori. Tasvirdagi ranglar asosida belgilash maydonini aniqlash.
Modifitsirovat	Belgilash chizig'ini piksellarda kengaytirish.
Uvelichit	Belgilash maydonini kengaytirish.
Preobrazovat videleniye	Belgilangan maydon shaklini o'zgartirish
Soxranit videleniye	Belgilangan maydon shaklini xotiraga joylashtirish.

### VID menyusi quyidagi buyruqlardan iborat :

Noviy vid	Yangi darchada ochish.
Uvelichit (Ctrl++)	Tasvirning ekrandagi ko'rinishini kattalashtirish.
Umenshit (Ctrl+-)	Tasvirning ekrandagi ko'rinishini kuchaytirish.
Pokazat ves ekran	Tasvirimi butun ekran ko'rinishida ko'rsatish.
Realniy razmer	Tasvirini mavjud o'lchamlaridagi ko'rinishi.
Razmer pechatnogo ottiska	Tasvirning bosma shakldagi ko'rinishi.
Vikl. lineyki (Ctrl+R)	Chizg'ichlarni olib tashlash.

### OKNO menyusi quyidagi buyruqlardan iborat :

Kaskad	Tasvirni ekranda vertikal xolatda tasvirlash.
Mozayka	Tasvirni ekranda gorizontal xolatda tasvirlash.
Upodryachit znachki	Uskunalar panelidagi buyruqlarni tartibli joylashtirish.
Zakrit vsyo	Photoshop darchasida ochilgan barcha tasvirni berkitish.
Vkl. Panel	Uskunalar panelini o'chirish yoki yoqish.
Vkl. Navigator	Navigatorming ekranda paydo bo'lishini ta'minlash.
Pokazat informasiyu	Axborotlar darchasini aktivlashtirish.
Pokazat svet	Ranglar joylashgan maxsus darchani aktivlashtirish.

Vkl. Kisti	Bo‘yoq cho‘tkalari joylashgan darchani aktivlashtirish.
Vkl. Sloy	Qatlamlar haqidagi ma’lumotlarni saqlovchi darchani aktivlashtirish.
Pokazat deystviya	Tasvirlar bilan ishslashda bajarilgan barcha amallar haqidagi ma’lumotlar darchasini aktivlashtirish.
Ubrat stroku sostoyaniya	Photoshop dasturi darchasi ostidagi ma’lumotlar satrini o‘chirish yoki yoqish.

**FILTRI** menyusi tarkibidagi qo‘srimcha buyruqlar bilan qo’llanmaning fitrlar bilan ishslash bobida tanishingiz mumkin.

**POMOSH** menyusi tarkibida Adobe Photoshop dasturiga ta’lluqli barcha ma’lumotlar joylashgan. Bu menu tarkibidagi buyruqlar yordamida Adobe Photoshop dasturi darchasidagi uskunalarining qisqacha qanday vazifani bajarishi haqidagi ma’lumotlarni o‘qish mumkin.

**Uskunalar paneli.** Adobe Photoshop uskunalar panelida turli xil ishni bajariadigan oynalar joylashgan. Har biri Adobe Photoshop dasturining biror-bir buyrug‘ini anglatadi. Agar uskunalar panelida biron-bir oyna bo‘lmasa, menu satring **Okno** punktida **Vkl. Panel** buyrug‘ini tanlang.

Adobe Photoshop dasturida jami 46 ta uskunalar mavjud bo‘lib, ulardan 20 tasi bevosita dastur ishga tushirilganda oynada ko‘zga tashlanib turadi. Qolganlarini qo‘srimcha buyruqlarni bajarish orqali ishga tushirish mumkin. Agar uskunalar panelida joylashgan oynaning ostki qism o‘ng burchagida kichik uchburchak shakli tasvirlangan bo‘lsa, bu tasvir ushbu oyna tarkibida o‘xshash buyruqni bajaruvchi uskunalar yashiringanligidan darak beradi.

Yashiringan uskunani aktivlashtirish uchun kursorni maxsus belgili oyna ustida «sichqoncha» ning chap tugmasini bosgan holda uskunalar panelidan tashqariga olib chiqariladi va kerakli oyna ustida kursorni qoldirib «sichqoncha» ning chap tugmasi qo‘yib yuboriladi.

Har bir oynaga cursor yaqinlashtirilsa, cursor belgisi ostidagi uskunaning qanday vazifani bajarishi xaqidagi axborot paydo bo‘ladi.

Quyida Adobe Photoshop dasturida ishslash jarayonida keng qo’llaniladigan uskunalarining qisqacha tavsifi keltiriladi.

 **Pryamougolnaya oblast:** To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi maydonni belgilab olish uchun qo’llaniladi. Bu uskuna yordamida tasvirdagi alohida maydonni belgilab olingandan keyin tasvirga kiritilgan barcha o‘zgarishlar faqat belgilangan maydon ichiga ta’sir etadi. Ushbu oynaga qo‘srimcha tarzda **Shift** klavishi ishlatsa, belgilangan maydon xududi ortadi. **Shift** klavishi o‘rnida **Alt** klavishi qo’llanilgan taqdirda belgilangan maydon xududi qisqaradi. Ushbu amal Lasso va Volshebnaya palochka uskunalarini bilan ishslashda qo’llaniladi.

 **Ellipticheskaya oblast:** Doira shaklidagi maydonni belgilab olish uchun qo’llaniladi. Bu oyna yordamida tasvirdagi alohida maydonni belgilab olingandan keyin tasvirga kiritilgan barcha o‘zgarishlar faqat belgilangan maydon ichiga ta’sir etadi.

**Stroka pikseley:** tasvirda gorizontal shakldagi chiziqni belgilaydi. Amalda bu oyna juda kam qo’llanildi.

**Stolbes pikseley:** Tasvirda vertikal shakldagi chiziqni belgilaydi. Amalda bu oyna ham juda kam uchraydi.

 **Kadrirovaniye:** Ushbu oyna, asosan tasvir chetlarini va keraksiz qismlarini kesib tashlash uchun qo’llaniladi. Bu buyruq aktivlashtirilganda tasvir yuzida to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi ramka hosil bo‘ladi. Ramkaning chetlari kichik kvadratlardan iborat bo‘lib, bu kvadratchalar yordamida ramka hajmi o‘zgartiriladi. Tasvir ramka ostiga olingandan so‘ng **Enter** klavishi bosilsa, ramka tashqarisida qolgan ortiqcha bo‘laklar kesib tashlanadi. Ushbu buyruqni **Esc** klavishini bosib rad etish mumkin.



**Peremesheniye:** Ushbu oyna tasvirdagi belgilangan maydonni yoki qatlamni siljitish va kesib olish uchun hizmat qiladi. **Peremesheniye** buyrug‘ini bajaradigan ayni jarayonni boshqa ayrim oynalar (masalan Volshebnaya palochka oynasi) yordamida ham amalga oshirish mumkin.



**Lassol:** tasvirdagi turli shakldagi ob’ktlarni belgilash uchun ishlatiladi.



**Mnogougolnoye Lasso:** Asosan tasvirdagi to‘g‘ri chiziqlardan iborat obyektlarni belgilashda ishlatiladi. Alt klavishi qo‘llanilganda oddiy **Lasso** oynasi vazifasini bajaradi.



**Magnitnoye Lasso:** Bu oyna ishlatilganda Adobe Photoshop dasturi tasvirdagi obyekt chegaralarni o‘zi belgilaydi. Ammo bu oyna piksellardagi ranglarni o‘zgarishiga bog‘liq tarzda chegaralarni aniqlashi bois kam qo‘llaniladi.



**Volshebnaya palochka:** Bir-biriga yaqin bo‘lgan rangdagi piksellar joylashgan maydonni belgilaydi. Shift bilan birgalikda qo‘llansa, belgilangan maydon hajmi ortadi. Alt bilan ishlatilganda esa belgilangan maydon hajmi kamayadi.



**Aerograf:** tasvirini bo‘yashda ishlatiladi. Aerografni bir joyda ushlab turish siyohni tasvir bo‘ylab yoyilib ketish effektini beradi. Bo‘yoqning tasvir bo‘ylab oqishi kursorni qo‘yib yuborguncha davom etadi. Odatda bu uskuna yumshoq cho‘tkalar ishlatiladi. Aerograf kursorni ushbu uskuna ustida bosish yoki klaviaturadagi J klavishini bosish orqali aktivlashtiriladi.



**Kist:** Aerograf oynasi kabi tasvirni bo‘yashda ishlatiladi. Ammo **Kist** yordamida tasvirni sifatli bo‘yash mumkin. Bu oyna aerografga nisbatan ko‘p qo‘llaniladi. **Kist** oynasini V klavishini bosish orqali aktivlashtirish mumkin. Brushes oynasi yordamida bo‘yoq cho‘tkalarini shaklini o‘zgartirish mumkin.



**Shtamp:** tasvirdagi kichik bir bo‘lak nushasini ko‘chirish uchun ishlatiladi. Bu oyna tasvirdagi ayrim nuqsonlarni, dog‘larni yo‘qotish va eski rasmlarni tiklashda keng qo‘llailadi.



**Kist predidushix sostoyaniy:** Bu oyna tasvir haqidagi dastlabki ma’lumotlar asosida ishlaydi. Uning yordamida tasvirga kiritilgan so‘ngi o‘zgartirishlarni bekor qilish mumkin.



**Lastik:** tasvirni o‘chirish uchun ishlatiladi. U qo‘llanganda tasvirda fon qaysi rangda bo‘lsa, o‘sha rangdagi chiziqlar hosil bo‘ladi. Alt klavishini qo‘llash yordamida kompyuter xotirasiga olinmagan so‘ngi o‘zgartirishlarni bekor qilish mumkin. LASTIK uskunani YE klavishini bosish orqali aktivlashtiriladi.



**Karandash:** turli chiziqlarni chizish uchun foydalilanadi. Alt klavishi bosilganda kursorning ekrandagi tasviri o‘zgaradi va bevosita tasvirdan kerakli rangni tanlash mumkin. Bu amal bajarilgandan so‘ng o‘sha rangda chizq tortadi.



**Liniya:** To‘g‘ri chiziqlarni chizishda qo‘llanilaniladi.



**Razmivka:** Ushbu oyna ishlatilganda, tasvirdagi yorqinlik pasayadi. Alt klavishi bilan qo‘llanganda yorqinlik ortadi.



**Rezkost:** Ushbu oyna ishlatilganda tasvirdagi yorqinlik ortadi. Alt klavishi bilan qo‘llanganda esa tasvir hiralashadi.



**Pales:** Tasvirdagi ranglar chayqaltirib, tasvirdagi obyektlar o‘rtasidagi chegaralarni bir-biriga qo‘sishga xizmat qiladi.

 **Osvetitel:** Piksellardagi ranglar yorqinlashadi. **Alt** klavishi bilan qo'llanganda esa piksellardagi ranglar hiralashadi.

**Zamenitel:** Tasvir ustida harakatlantirilganda piksellardagi ranglar qoramtil tus oladi.

**Gubka:** Tasvir ustida xarakatlantirilganda, tasvirdagi ranglar miqdori pasayadi. Gubka bir joyda ko'p aylantirilsa, tasvirning o'sha joyi kulrang tus oladi.

 **Pero:** Peroni tasvir ustida xarakatlantirilganda, nuqtalar xosil bo'ladi. Ushbu nuqtalar yordamida chizilgan tasvirni o'zgartirsh mumkin.

**Magnitnoye pero:** Bu uskuna xuddi magnitnoye lasso kabi xarakatlanadi. Biror bir tasvirdagi obyekt atrofida xarakatlantirilganda, Adobe Photoshop dasturining o'z obyekt chetlarini belgilab chiqadi.

 **Proizvolnoye pero:** juda qulay oyna bo'lib, xoxlagan shakldagi tasvirni u yordamida ifodalash mumkin.

 **Vstavit tochku:** Bu oyna pero yordamida chizilgan chiziq ustiga qo'shimcha nuqtalarni qo'shadi.

 **Udalit tochku:** pero yordamida chizilgan chiziq ustidagi ortiqcha bo'lgan nuqtalarni o'chiradi.

 **Neposredstvennoye videleniye:** U yoki bu pero bilan chizilgan chiziqlarni tahrir qilish uchun hizmat qiladi.

Uning yordamida chiziqdagi nuqtalarni yakka tartibda harakatlantirish va kerakli joyga siljитish mumkin.

**Preobrazovat tochku:** Tasvir ustida chizilgan chiziqchalarda o'rnatilgan har bir nuqta, burchak yoki yoy vazifasini bajaradi. Ushbu oyna yordamida nuqtalarning vazifalarini o'zgartirish, yani yoyni burchakka va burchakni yoga almashtirish mumkin. Buning uchun kursorni nuqta ustiga olib borib «sichqoncha» ning chap tugmasi bir marta bosiladi.

 **Tekst:** Ushbu uskuna yordamida tasvirga turli matnlarni kiritish mumkin. **Tekst** oynasi aktivlashtirilib, cursor tasvir ustida bosilsa, matn kiritish uchun alohida darcha hosil bo'ladi. Bu darchada xarf o'lchami, turi, rangi va boshqa o'lchamlari kiritiladi. Bu uskuna yordamida kiritilgan matnlarni qayta tahrir qilish imkonи mavjud emas. Tekst uskunani aktivlashtirilib, cursor tasvir ustida bosiladi, matn kiritish uchun alohida darcha hosil bo'ladi. Bu darcha harf o'lchami, turi, rangi va boshqa o'lchamlari kiritiladi. Bu uskuna yordamida kiritilgan matnni qayta tahrir qilish imkonи mavjud emas.

 **Tekst-Maska:** Tekst oynasi kabi bu uskuna aktivlashtirilib, matn ustida bir marta bosiliganda, **Tekstoviye instrument** darchasi hosil bo'ladi. Lekin bu oddiy tekstdan tubdan farq qiladi. Harflarning cheti huddi Lasso oynasini belgilash kabi ko'rinishga ega bo'ladi. Harflarni turli ranglarga bo'yash va **Peremesheniye:** Oynasi yordamida o'rnidan siljитish yoki boshqa rasmga olib o'tish mumkin.

 **Vertikalniy tekst:** agar tasvirga pastdan yuqoriga shaklda (vertikal shaklda) matn kiritmoqchi bo'lsangiz ushbu uskunadan foydalanishingiz mumkin.

 **Vertikalnaya tekst-maska:** Tekst-maska oynasi bir xil vazifani bajaradi. Ammo bu oyna qo'llanganida harflar ustma-ust ustun kabi joylashtiriladi.

**Izmenit:** Tasvirda turli o'lchovlarni bajarish uchun ishlatiladi. Bu uskuna bilan bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga cursor olib borilishi kifoya. Adobe Photoshop dasturi avtomatik tarzda ikki nuqta orasidagi masofani o'lchaydi.



**Gradint:** Bu uskuna ishlatilganda, tasvirdagi belgilangan maydonda ranglar kombinasiyasi hosil bo'ladi. Asosiy rangning tasvir foni sizib o'tish effekti hosil bo'ladi.

**Kovsh:** Ushbu oynadan, asosan, tasvirni yoki tasvirdagi ajratib olingan hududni bo'yashda foydalaniladi. Ranglarni qo'shimcha buyruqlarni bajarish orqali tanlanadi. Bu uskunani aktivlashtirish uchuni **K** klavishi bosiladi.



**Pipetka:** Tasvirdagi asosiy yoki tasvir foni rangini o'zgartiradi, pipetka tasvir ustidagi biror nuqtada rang sifatida tanlanadi. Agar ayni jarayonga **Alt** qo'shilsa, tanlangan rang tasvir fonini o'zgartirishga olib keladi.

**Viborka svetov:** Ushbu oyna tasvirdagi ranglar haqida axborot olishga hizmat qiladi.

**Info** darchasida belgi qo'yilgan nuqtada necha foiz qizil, ko'k va qora ranglar mavjudligi haqidagi axborot hosil bo'ladi.



**Ruka:** Tasvirning ko'zga tashlanmay turgan qismlarini ko'rsatadi. Buning uchun ushbu uskuna aktivlashtirilib tasvir ustida «sichqoncha» ning chap tugmasini bosgan holda kerakli tomonga harakatlantiriladi. Ayni jarayonni Adobe Photoshop dasturi darchasidagi **Navigator** yordamida ham amalga oshirish mumkin.



**Masshtab:** Tasvirni kattalashtirish yoki kichraytirish uchun hizmat qiladi. Agar ushbu oyna bilan birgalikda **Alt** klavishi ishlatilsa, tasvir kichrayadi. Kursor ushbu uskuna aktivlashtirilgandan so'ng o'z shaklini o'zgatiradi va lupa ko'rinishini oladi. Kursor tasvirning qaysi nuqtasida bosilsa, adobe Photoshop dasturi avtomatik tarzda o'sha nuqtani ekranga yaqinlashtiriladi. Masshtab uskunani aktivlashtirilib, **Enter** klavishi bosilsa, Opseiya mashtabirovaniya oynasi ochiladi. Bu oynada maxsus to'rburchak ichiga belgi qo'yiladi, tasvir o'lchamlari o'zgartirilganda tasvir oynasi xam mos tarzda o'zgartiriladi. Har safar tasvir o'lchamlari kattalashtirish yoki kichraytirish uchun masshtab uskunani aktivlashtirish zarur emas. Boshqa oyna bilan ishslash paytida **Ctrl+PROBEL** bosilsa, ishlatilayotgan oyna vaqtinchalik masshtab oynasini vazifasi bajaradi va tasvir kattalashadi. **Ctrl + PROBEL** o'rnida **Alt +PROBEL** qo'llanilsa, tasvir o'lchami kichrayadi. Shuningdek, tasvir o'lchamini **Ctrl+(plus)** klavishlari yordamida kattalashtirish yoki **Strl -** (minus) yordamida kichraytirish mumkin. Adobe Photoshop dasturi oynasi ostida **stroka sostoyaniya** satrida tasvir o'lchamlari haqida axborot beruvchi mahsus oyna mavjud. Bu oyna tasvir o'lchamlari sonlarda ifodalangan. Ushbu sonlarni o'zgartirish orqali tasvirning aniq o'lchamlari kiritiladi.



**Osnovnoye svet:** Ushbu oyna ustida kursor ikki marta ketma-ket bosilganda Adobe Photoshop dasturining yangi oynasi (Vibor sveta) hosil bo'ladi. Bu oynada kerakli rang tanlanib, **OK** yoki **ENTER** tugmasi bosiladi va tanlangan rangni karandash, kist, aerograf, gradiyent kabi oynalari yordamida qo'llash mumkin.



**Svet fona:** Ushbu tugma ustida kursor («sichqoncha» tugmasi) ikki marta bosilaganda Adobe Photoshop dasturining yangi oynasi (**COLOR PICKER**) hosil bo'ladi. Bu oynada tasvir fonining rangi aniqlanadi. Tasvir fonidagi rang lastochka va gradiyent oynalari uchun qo'llaniladi.



**Pereklyucheniye svetov:** Ushbu belgi ustida kursorni bosish asosiy rang bilan tasvir foni ranglari o'rni almashtiriladi.



**Sveta po umolchaniyu:** Bu belgi ustida kursorni bir marta bosish bilan asosiy rang qoraga va tasvir foni ranglari oqqa aylanadi.



**Marshiruyushiye muravi:** Bu oyna yordamida Adobe Photoshop dasturida tez niqoblash holati bekor qilinadi. Ekranda belgilash chegaralari chumolilar xarakatini eslatuvchi punktir chiziq yordamida aks ettiriladi. Bu Adobe Photoshop dasturida, odatda standart holat deb ataladi.



**Bistraya maska:** Ushbu oyna ustida cursor bir marta bosilishi bilan Adobe Photoshop dasturi tez niqoblash holatiga o'tadi va natijada tasvirdagi niqoblanmagan xudud qizil rang bilan bo'yaladi. Ushbu oyna tasvirdagi turli obyektlarni aniq niqoblanishda ishlataladi. Kist oynasi yordamida niqobga ishlov berish mumkin. Bunda qora rang bilan tasvir niqoblanadi, oq rang bilan tasvir rangi niqobi o'chiriladi.



**Standartnoye okno:** Oyna aktivlashtirilganda tasvir standart holatda bo'ladi.



**Polniy ekran s menyu:** Bu tasvir kompyuter ekraniga sig'magan holda ishlataladi. Ushbu oyna aktivlashtirilganda ekranda menyu satri hamda uskunalar paneli qoladi.



**Polniy ekran:** Ekranda faqat tasvir va uskunalar paneli hamda menyu satri qora fonda qoladi.

## TO'LA EKRANLI REJIM

Photoshop dasturi tasvirni bиринчи мarta ochganda uni maksimal o'lchamda ochadi. Tasvir bilan ishslash jarayonida uning o'lchamini bir necha marta kattalashtirish yoki kichraytirishga to'g'ri keladi. Ana shunday holatlarda tasvirni xoxlagan paytda dastlabki **Polnoekranniy rejim** holatiga qaytarish mumkin. Buning uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

Menular satrida **Vid** menyusi tarkibidagi **po razmeram ekrana** komandasini tanlash:

- Ctrl+ 0 (nol) tugmalarni birgalikda bosish;
- Uskunalar penalidagi **ruka** oynasi ustida «sichqoncha» tugmasini ikki marta ketma-ket bosiladi.

Adobe Photoshop dasturi tasvirning printerda chop qilingandagi ko'rinishini chop qilmasdan avval ekranda ko'rish imkoniyatini beradi. Buning uchun menular satrida izobrajeniye menyusini tarkibidagi razmer izobrajeniya buyrug'ini tanlanadi. Ammo, hamma vaqt ham tasvirning ekrandagi ko'rinishi bilan chop etilgandagi o'lchamlari aynan mos tushavermaydi. Tasvir kattaliklari 0,2% dan 16000 % miqdor o'rtasidagi sonlar bilan belgilanadi.

## TASVIR FORMATLARI

Adobe Photoshop dasturi 20 dan ortiq formatdagi fayllar bilan ishslash imkoniga ega. Eng ko'p qo'llaniladigan format:

**BMP** (Windows Bitmap – Windows ning vit kartasi) - Windows muhitida ishlovchi kompyuterlarda ekran osti tasvirlarini qo'llovchi dastur Microsoft Paint da keng qo'llaniladi.

**Jpeg** (Joint Phonographic Experts Group) – hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan formatlardan biri bo'lib, uning asosiy afzaliklaridan biri mahsus dastur yordamida fayl hajmini yetarlicha siqish imkonining mavjudligidir. Ammo faylni siqib, hajmini kichraytirish jarayonida tasvir sifatida o'zgarish bo'ladi. Fayl kuchli siqilganda tasvir sifati yomonlashishi mumkin. Ushbu formatdagi fayllar kompyuter xotirasida ko'p joy egallamaydi va hajm jihatidan kichikligi bois mazkur formatdagi tasvirlar bilan ishslash ancha oson.

**TIFF** (Tagger Image File Format) – bu formatdagi fayllar sham keng qo'llanadi. Lekin Tiff formatidagi fayllar kompyuter xotirasida ko'p joyni egallaydi. Adobe Photoshop dasturida ushbu formatdagi tasvirlar bilan ishslashda dasturining ishslash tezligi sezilarli ravishda kamayishi mumkin.

**GIF** (Grapis Interchage Format- grafikni ayriboshlash formati) – ushbu formatdagi tasvirlar 256 turdag'i rang bilan tasvirlanadi. Bu formatdagi tasvirlar, asosan, internet tizimida keng qo'llanaladi.

## RANGLAR BILAN ISHLASH.

Kompyuter grafikasi 3 xil bo'ladi: rastrli (nuqtali), vektorli va fraktal. Vektorli grafika muxarrirlariga misol qilib Adobe Illustrator, Corel Draw va Macromedya Flash dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dasturlarda rasmlar har xil chiziqlar va qiyshiq vektorlardan iborat bo'ladi.

Vektorli grafikada yaratilgan rasmlar logotip, illyustratsiyalar va zastavkalar yaratishda foydalaniladi. Rastrli grafika muxarriqlariga misol qilib Adobe Photoshop va Paint dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dastrularda rasmlar mayda kvadrat - piksellardan iborat bo'lib mozaika xolatida rasmni xosil qiladi. Rastrli grafikadan raqamli fotosuratlar va skanerdan olingan rasmlar bilan ishlash uchun foydalaniladi. Kompyuter grafikada dyuymdagagi piksellar soni (ppi) asosiy shart bo'ladi. Qancha ko'prok piksellar soni bo'lsa shuncha tasvir sifatliroq bo'ladi. Masalan agar ppi=72 bo'lsa u xolda 1 kvadrat dyuymga 5184 piskel joylashadi va uning xajmi 6 Kb bo'ladi, agar ppi=144 bo'lsa u xolda 1 kvadrat dyuymga 20736 piskel joylashadi va endi uning xajmi 21 Kb ga teng bo'ladi. Shu bilan birga monitorning ko'rsatish va printering chiqarish sifati - dyuymga piskellar soni (dpi) (72 yoki 96 dpi) va dyuymga chiziqlar soni (Ipi) (300-2400 dpi lazerli, sepuvchi printerlar uchun va 75-200 lpi matritsali printerlar uchun), xamda kompyuter ranglar sifati (2, 16, 256, 32 000, 16 000 000 ranglar soni) xam katta axamiyatga ega bo'ladi.

Rang xolatlari - ranglarni chiqarish va ko'rsatish yo'li.

### Rang modellari.

Rang xolatlari 2 xil bo'ladi: RGB (qizil, yashil, ko'k) monitorlarda tasvir ko'rsatishda foydalaniladi, CMYK (xavorang, purpur, sariq, qora) bosmada foydalaniladi. RGB xolatidagi ranglar soni CMYK xolatga qaraganda ko'proq.

Kompyuter grafikasida rang juda muxim – ko'zatuv taassurotni kuchaytirish va tasvirni axborotga boyitish rolini o'ynaydi. Biz ko'rayotgan yoritilgan buyumdan qaytgan yoruq'lik ko'z qorachiq'i orqali ko'zimizga o'tadi va ko'z ichidagi asab xujayralarini qo'zq'atadi. Bu hujayralar asab tolalari orqali miya bilan boq'langanligi tufayli ko'z yoruq'ligi miyaga o'tadi va ongimizda buyumni ko'rish tuyq'usi paydo bo'ladi. Biz buyumni ko'ramiz. Atrof muhitni bunday ko'rish qobiliyati ko'rish deb, ko'rish a'zosi esa ko'z deb ataladi.


Biz sezgi organlarimiz orqali atrof muhit haqida juda ko'p ma'lumot olamiz. Bu ma'lumotlarning 90% ni ko'rish orqali qabul qilamiz. Yoruq'lik oqimi bu ma'lumotlarni eltuvchi hisoblanadi.

Bizning ko'zimiz miya bilan organizmning asab sistemasi orqali boq'langan. Agar ko'zning to'zilishini fotoapparat, kinoga olish apparati va televizion kamera kabi hozirgi zamon optikaviy apparatlarining to'zilishi bilan taqqoslasak ular orasida o'xshashlik borliqini sezishimiz mumkin.

Biror bir ranglar aralashmasidan olish mumkin bo'lмаган ranglar asosiy ranglar deyiladi.

Qizil, yashil va ko'k ranglar1-asosiy ranglar hisoblanadi (1-rasm). Ularni bir hil aralashtirsak  
oq hosil  
bo'ladi.


**RGB** modelining nomi **Red** - qizil, **Green** – yashil va **Blue** – ko'k birlamchi ranglarning bosh xarflaridan olingan bo'lib, ushbu ranglarning turli proporsiyalarda aralashtirish natijasida ko'rinvchi spektrning turli hil boshqa ranglarini olish mumkin. Birlamchi ranglarning aralashmasidan ikkilamchi moviy (cyan), pushti (magenta) va sariq (yellow) ranglar xosil bo'ladi.



1-rasm. RGB modeli.

RGB modelining tashkil etuvchilari 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. **R=255**, **G=255**, **B=255** bo'lganda oq rang, **R=0**, **G=0**, **B=0** bo'lganda esa qora rang xosil qilishimiz mumkin.

**CMYK modeli** (2-rasm) bo'yоqlarning nurni yo'tish qobiliyatiga asoslangan. Oq rangning nur o'tuvchi bo'yоqdan o'tishida spektrning bir qismi yutiladi. Yutilmagan nur qaytadi va odam ko'ziga tushadi.



2-rasm. CMYK modeli.

Ranglar moviy (**Cyan**), pushti (**Magenta**) va sariq (**Yellow**) ranglar aralashmasidan paydo bo'ladi. Ularning to'liq aralashmasidan qora (**black**) rang xosil bo'ladi. Modelining tashkil etuvchilari 0 dan 100 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin.

**HSB(HSV) modeli.** Model nomi o'nga asos bo'lgan uch komponentning bosh xarflaridan olingan: Hue - rang toni; Saturation - to'yinganlik; Brightness - yorqinlik. Model odam ko'zining rangni xis qilish qobiliyatiga asoslangan.

**Rang toni** 0 dan 360 gradusgacha diapszondagi burchak kattaligi bilan tavsiflanadi.

**To'yinganlik** (yoki xromatiklik) rangning tozalik darajasidir. U kul rangning boshqa rangga nisbati bilan aniqlanadi (0% – kul rang, 100% – to'la to'yingan rang). Rangning yorqinligi 0 dan 100 gacha o'zgarishi mumkin.

Adobe Photoshop dasturida uskunalar panelida ranglar bilan ishslash uchun to'rtta uskuna ajratilgan:


**OSNOVNOY SVET.** Ushbu oynasida qanday rang ko'satilgan bo'lsa, **KOVSH**, **LINIYA**, **KARANDASH**, **KIST**, **AEROGRAF** va shuningdek, **Alt** klavishi bilan birgalikda qo'llanganda **PALES** oynasi uchun o'sha rang asosiy hisoblanadi. Osnovnoy svet oynasidagi rang **PIPETKA** yoki ushbu oyna ustida «sichqoncha» tugmasini ikki marta ketma-ket bosish orqali o'zgartiriladi.

**SVET FONA.** Ko'satilgan rang **LASTIK oynasi** bilan ishlanganda qo'llaniladi. **SVET FONA** oynasidagi rang **OSNOVNOY SVET** oynasida rangni o'zgartirish uchun qanday amal bajarilgan bo'lsa, bunda ham huddi o'sha amalga rioya qilish lozim yoki **PIPETKA** oynasi bilan Alt klavishini birgalikda bosish orqali rangni almashtirish mumkin.

**PEREKLYUCHENIYE SVETOV**, kursorni ushbu oyna usida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon rangi o'rinn almashadi.

**STANDARTNIY SVET**. kursorni ushbu oyna ustida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon rangini standart ranglar qora va oq rangga almashtiriladi.

Ranglarni tanlashda Adobe Photoshop dasturida Color yoki Swatches oynalaridan ham foydalanish mumkin.



RGB (red, Green, Blue qizil, ko'k, yashil) moduli tasvirni ekranda tahrir qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u 24 razryadli ranglar platasi yordamida deyarli barcha 16 million ranglarni monitorlarda aks ettiriladi. RGB ranglar majmuasi bilan ishlagan

barcha tasvirlarni xoxlagan formatda diskka yozish mumkin. RGB ranglar majmuasidagi ayrim ranglar umuman tabiatda uchramaydi.

CYMK – tabiatda mavjud bo‘lgan ranglar majmuasi, quyosh nurlari inson ko‘zлari ajrata oladigan barcha ranglarni o‘ziga mujassamlashtirgan. Quyosh nurlari biror – bir jismga tushganda uning ta’siri ostida inson ko‘zлari jism shakli va rangini idrok etadi. Misol uchun binolarning o‘t o‘chirish burchaklariga osib qo‘ylgan o‘t o‘chirichilar to‘q ko‘k va zangori ranglar bilan bo‘yalishiga qaramay, bizning ko‘zimizga to‘q qizil rangda ko‘rinadi. Ranglarni bir biriga qo‘silishi natijasida boshqa ranglar hosil qilinadi:

C – xavorang, M – binafsharang, Y - sariq rang, K - qora rang.

RGB ranglar majmui keng ko‘lamdagi ranglarni taklif etadi. Lekin ularning ko‘p qismi (ayniqsa, yorqinlari) tasvirni chop etganda monitordagi bilan keskin farq qiladi. Shu bois ham ko‘plab mutaxassislar tasvirni chop etishdan avval uni CMYK tizimiga o‘tkazadilar. Ayrim mutaxassislar esa tasvir bilan CMYK tizimida ishslashni maslaxat beradilar. Ammo bu tasvir bilan ishslash turli qynchiliklar tug‘diradi. Ayni shunday qynchiliklardan biri – kompyuter juda sekin ishlaydi. Bunga asosiy sabab Adobe Photoshop dasturi RGB tizimiga sozlangan bo‘lib, har bir buyruqni bajarib, uni RGB tizimidagi CMYK tizimiga almashtirguncha kompyuter qo‘sishicha vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, skaner va monitor RGB tizimida ishslashga mo‘ljallangan. Ranglar bilan ishlovchi barcha uskunalar (rangli printerdan tashqari) RGB tizimida ishlaydi. Shuning uchun yaxshisi tasvirni chop etishdan avval CMYK tizimiga o‘tkazib olish maqsadga muvofiq. Tasvir ustida barcha amallarni poyoniga yetkazib, menyular satrida IZOBRAJENIYE – NASTROYKA tarkibidagi CMYK buyrug‘ini tanlang.

### QATLAMLAR BILAN ISHLASH

Adobe Photoshop dasturi tasvirdagi biror obyekt PRYAMOUGOLNAYA OBLAST, ELLIPTICHESKAYA OBLAST, LASSO, VOLSHEBNAYA PALOCHKA, BISTRAYA MASKA yordamida tasvirdagi detallar belgilanib ularning nusxalari Adobe Photoshop dasturi yangi qatlama hosil qiladi. Bu qatlama alohida obyekt bo‘lib, uni tahrir qilish ham alohida tarzda bo‘ladi. Bir necha tasvirlardagi ayrim detallarni yagona tasvirga jamlanganda Adobe Photoshop dasturi ko‘chirib o‘tilgan tasvir bo‘laklarni qatlamlarga ajratadi. Ayni jarayon tasvir detallarini joylashtirish uchun juda qulay. Bir necha qatlamlar bilan ishlaganda ularni boshqarish qiyinlashadi. Adobe Photoshop dasturi bajarilganda yangi oyna hosil bo‘ladi. Bu oynada tasvirdagi yangi qatlamlar haqidagi axborotlar joylashgan. Yangi qatlama hosil qilinganda Adobe Photoshop dasturi uni SLOY oynasida ro‘yxatga oladi. Bu oynada qatlamlar tartibli tarzda joylashtiriladi. Shuningdek, qatlamlarning o‘rnini almashtirish yoki vaqtincha o‘chirib qo‘yish mumkin. Qatlamlarni o‘chirish uchun avval kerakli qatlama SLOY darchasida belgilab olinadi va **menyular** satrida **sloy** menyusi tarkibidagi **UDALIT SLOY** buyrug‘i tanlanadi. Dasturda qatlamlarni bir-biriga birlashtirish imkoniyati xam mavjud.

### MATNLAR BILAN ISHLASH

Photoshop dasturi tasvirlar ustiga matnlarni kiritish uchun yana bir keng imkoniyatni ochib beradi. Tasvir ustiga matn kiritish uchun oynalar panelida maxsus **Tekst** oynasi mavjud. Bu oyna asosan tasvirga turli mantlarni kiritish uchun xizmat qiladi. Tekst oynasi tirkibida Tekst mask, Vertikalniy tekst kabi oynalar yashiringan. Bu oynalar aktivlashtirilib, kurstor tasvir ustida bir marta bosilishi bilan yangi Testoviy instrument oynasi xosil bo‘ladi. Bu oynalar faqat matnlarni tuzish uchun xizmat qiladi. Uning yordamida mavjud matnlarni tahrir qilishning iloji yo‘q.

### Amaliy topshiriq

1. Adobe Photoshop dasturini ishga tushiring.
2. Adobe Photoshopda tayyor tasvir faylini oching.
3. Fayl ustida quyidagi amallarni bajaring.
  - Tasvir rangini o‘zgartiring;
  - Tasvirni ekranidagi ko‘rinishini kattalashtiring;

- Tasvir rangi yorqinligini orttiring;
  - Tasvirga tasvirga mos tekst kirit;
  - Tasvirning keraksiz qismlarini olib tashlang.
4. Xosil bo‘lgan tasvirga yangi nom bering.
  5. Photoshop dasturidan o‘zingiz uchun vizit kartochkasi yaratish va uni xotirada saqlang.
  6. Adobe Photoshop dasturi ishini yakunlang.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Adobe Photoshop dasturining vazifasi nimadan iborat?
2. Adobe Photoshop dastur qanday ishga tushiriladi va ishi yakunlanadi?
3. Adobe Photoshop dastur necha menyudan iborat va ularning vazifalarini aytning?
4. Adobe Photoshop dasturida qanday uskunalar paneli mavjud, ularning vazifalarini aytning?
5. Matn bilan ishlash usulini ko‘rsating?
6. Ranglar bilan ishlash uchun nechta oyna mavjud, ularning vazifasini aytning?
7. Mustaqil ravishda biror bir rasm ustida amallar bajaring?

## **1 - amaliy mashg‘ulot**

### **Adobe Photoshop dasturi bilan tanishuv.**

**Ishning maqsadi:** Adobe Photoshop dasturining imkoniyatlarini o‘rganish. Dastur funksiyalari bilan tanishuv.

#### **Vazifa:**

1. Dasturning ishchi sohasi, uskunalar guruhi, funksional panellar, hamda ularning imkoniyatlari bilan tanishuv.


#### **Nazariy qism.**

Dasturni ishga tushirish: Windows 95, 98, ME, 2000, XR ili NT operasion tizimida **Pusk** tugmasiga bosing paneli zadach bo‘limida joylashgan **Programs** (Programmi) va u yerdan **Adobe Photoshop 7.0 elementi ustiga sichqoncha bilan bosing** yoki **Vse programmi** bo‘limiga kiring so‘ngra




ni joriy qiling.

Adobe Photoshop CS dasturi boshqa dasturlar orasida superxit mahsulotga aylandi. Uni ustiga bu dasturning har bir soni o‘zida yangi elementlarni mujassamlantirgan. Bu o‘zgarishlar Photoshop 7.0 versiyasida xam kuzatiladi. Ishlab chiqaruvchilar bu dasturdagi bir qator kamchiliklarni bartaraf qilishdi, bularga Windows i Mac OS X. qismida, Photoshop 7 nihoyat virtual xotira tizimni ishlashini o‘rgandi, natijada tezkor xotiraning bir qancha qismi tejab qolindi. Bu tejamkorlik katta xajimga ega bo‘lgan tasvirlar bilan ishlaganda seziladi. Shuningdek operasion tizimni osilib qolishi kamaydi. Hozirda Photoshop boshqa bir qancha daturlar bilan bir vaqtida yaxshi ishlashi mumkin (1.1-rasm).




**1.1-rasm.** Photoshop CS ekran ko‘rinishi.

Rasmda Photoshop dasturida ishslash bo‘yicha amaliy ko‘rsatma keltirilgan. Ushbu oynadagi tasvirni Zakrit tugmchasini bosamiz va quyidagi ishchi oyna hosil bo‘ladi (1.2-rasm).




**1.2-rasm.** Ishchi oyna.

Va bosh menyudagi Faylga kirib, yangi tasvir hosil qilish uchun Noviy bo‘limini joriy qilamiz va quyidagi oyna hosil bo‘ladi (1.3-rasm)



**1.3-rasm.**

Bu yerda fayl nomini (imya) satr qismiga kiritamiz. Masalan: pedagog. Va quyidagi oyna joriy bo‘ladi (1.4-rasm).




**1.4-rasm.**


Photoshop va ImageReady dasturlariga tasvirni tez ko'rib chiqish moduli kiritilgan. Oldin esa bu ishni amalga oshirish uchun tashqi dastur (utilit)lar ishlatalardi. Masalan ACDSee yoki ThumbsPlus. (PDA) cho'ntak kompyuterlari uchun rasmni importi va eksporti WBMP formatli filtrlari kiritilgan. Kompyuterning ishlash chegarasi doirasida avtomatik tarzda rasmning sifatini buzmagan xolda moslashuv (optimizasiya)ni bajaradi.

Photoshop dasturiga guruh (gruppovoy) bo'lib ishlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar kiritildi. Bu bir kompyuterda turli foydalanuchilar tomonidan Adobe dasturida ishslash imkoniyatini beradigan AfterCast kengaytkich qo'shildi. Agar bir foydalanuvchi tasvirga o'zgartirish kiritsa bir vaqt ni o'zida xamma foydalanuvchilar kuzata oladi. Ammo AfterCast sozlash (nastroyka)ni faqat administrator boshqara oladi, lekin bu o'z uy kompyuterlarida Photoshop dasturida ishlovchi foydalanuvchilar bu muammoga duch kelmaydilar. Biz yuqorida faqatgina Photoshop CS ni asosiy imkoniyatlarini sanab chiqdik.

### *Uskunalar paneli(panel instrumentov)*

Ekranda turgan dastur uskunalarini ishga tushirish uchun sichqoncha bilan uni ustiga bosing va ekranda ko'rinyotgan pictogrammani ustiga bosing. Bir xil pictogrammalar yonida kichik ko'rsatkich (strelochka)lar mayjud. Agar uni ustiga bosilsa tasvirga to'g'ri keluvchi oyna (vsplivayushaya palitra)lar ko'rsatiladi, u yerdan siz kerakli uskunalarni tanlashingiz mumkin. Har bir uskuna uchun o'zining o'lcham (parametr)lari ekran teppasida joylashgan opsiyalar panelida mavjuddir (1.5-rasm). Masalan, rejim smeshivaniya, znacheniye neprozrachnosti. Photoshop dasturi ishga tushganda oynaning chap qismida uskunalar paneli joriy bo'ladi.





b)

**1.5-(a,b) rasm.** Uskunalar panelida paydo bo'luvchi maslaxat(podskazka) oynasi.

**Eslatma:** Edit>Preferences>Display&Cursors (Pravka> Ustanovki> Otobrajeniye & kursori) oynasida kursov va uskunalar piktogrammalari ko'rinishlarini sozlash mumkin.

#### *Opsiylar paneli (Panel opsiy. 1)*

Opsiylar paneli har bir uskunaning parametrlarini sozlash uchun ishlataladi (1.6- rasm) masalan, shaffoflik darajasi yoki tasvirni almashtirish rejimi. Opsiylar panelining o'ng tomonida maxsus ranglarni saqlovchi bo'lim mavjuddir. Parametrлarni ko'rsatilishi qaysi rasmini tanlanganiga bog'liq (1.6-1.11-rasmlar). Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan tasvir ko'rinishi boshqa o'zgartirishlar kiritilguncha saqlanadi. Palitra va opsiylar panelini xam ekranni istalgan joyga siljitish mumkin.



**1.6-rasm.** Brush uskunasi uchun opsiylar paneli.



**1.7-rasm.** Rectangular Marquee uskunasi uchun opsiylar paneli.



**1.8-rasm.** Gradient uskunasi uchun opsiylar paneli



**1.9- rasm.** Rep uskunasi uchun opsiylar paneli



**1.10-rasm.** Rectangle uskunasi uchun opsiyalar paneli



**1.11-rasm.** Ture uskunasi uchun opsiyalar paneli

**Eslatma:** **Edit>Preferences>Display & Cursors** (Pravka> Ustanovki> Otobrajeniye & kursovi) oynasida kursov va uskunalar panelidagi uskuna piktogrammasini tanlashingiz mumkin.

Va Opsiya panelining o'ng tomonida aktiv uskuna piktogrammasi ko'rsatilgan. Agar piktogramma yonidagi strelka ustiga bosilsa, ko'rinnmay turgan menu ochiladi, unda boshqa kerakli bo'lgan uskunani tanlash mumkin. Bu jadvalga o'zgartirishlar kiritish mumkin ya'ni kam ishlatilayotgan uskunalarni olib tashlab o'rniga kerakli bo'lgan uskunalarni joylash mumkin. Har bir opsiyalar paneliga kiritilgan o'zgartirishlar avtomatik tarzda saqlanib qolinadi. Tugmalarni qayta tiklash va joylashtirish uchun paydo bo'luvchi paneldan amalga oshiriladi.

#### *Paydo bo'luvchi yordamchi maslaxatlar (vsplivayushiye podskazki)*

Istalgan piktogramma ustiga sichqonchani bosmasdan olib boring shunda siz ishlatmoqchi bo'lgan uskunaning nomi va uni klaviatura orqali ishga tushiradigan tugmachalar ko'rsatiladi. Shu bilan bir qatorda ishlatilayotgan opsiyalar oynasi va uning vazifasi xaqida qisqacha ma'lumot olish mumkin (1.12- rasm). **Edit > Preferences > General** (Pravka > Ustanovki > Obshiye) oynasidagi yordamchi maslahatlar oynasini ishlatish uchun **Show Tool Tips** oynasi ustiga bayroqchani o'rnating (Pokazivat vsplivayushiye podskazki).



**1.12-rasm.** Opsiyalar panelidagi yordamchi maslaxatlar

Dasturning barcha komandalari uchun **Asosiy menuy (Glavnoye menuy)** mavjuddir:



**1.13-rasm.** Asosiy menuy

**Fayl** (File) menyusi quydagi xolatlarda ishlatiladi: yaratish (sozdat), ochish (otkrit), joylashtirish (razmestit), yopish (zakrit), saqlash (soxranit), skanirlash (otskanirovat), import va eksport, qog'ozga chiqarish (napechatat izobrajeniye), Faylni tarmoq orqali uzatish (peredat fayl po seti), bir nechta opsiyalarni avtomatlashtirish uchun va albatta Photoshop dasturidan chiqish uchun.

**Pravka** (Edit) menyusida, tasvirni redaktirlash yani sozlash uchun komandalar: nusxalash (kopirovaniya), o'zgartirish (transformasiy), joylashtirish va tasvir ranglarini tusini va mo'yqalam qalinligi va turini tanlash mumkin.

**Rejim** (Mode) menyusi orqali **Image** (Izobrajeniye) menyusi, tasvir sakkiz turdag'i tasvir urinishlarini tanlash mumkin.

**Sloy** (Layer) menyusida joylashgan komandalar, bir necha qatlamlardan joylashgan tasvir ustidagi amallar yani: qatlamlar aro bog'lanishni qatlamlar ketma-ketligini va qatlamlarni umumiy qatlamga birlashtirish imkoniyatini beradi.

**Videlit** (Select) menyusida joylashgan komandalar – kerakli qatlamlarni tanlashda ishlatiladi.

**Filtr** (Filter) menyusi o'zida tasvirlarni birlashtirish va umumiy holga keltirish uchun kerakli bo'lgan filtiri mavjuddir.

**Vid** (View) menyusidagi komandalar, ekrandagi tasvirmi ko'rinishlarini nazorat qiladi.

**Okno** (Window) menyusi komandalari, zkrandagi boshqa tasvirlarni aks ettiradi va ulardan kerakli bo‘lgan paytda foydalanish imkonini beradi.

**Pomosh** (Help) menyusidagi komandalar foydalanuvchi uchun kerakli bo‘lgan maslahatlar orqali ko‘mak va hozirda bajarish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar bilan tanishtiradi.

Istalgan tasvirni xoxlagan paytda o‘zgartirishlar kiritish imkonini va 12 turdag‘ Photoshop kengaytma(format)larida saqlash imkonini beradi. Ammo odatta asosiy quydagi Photoshop formatlari ishlatilad: TIFF, GIF, JPEG, EPS.

Photoshop dasturida ko‘pgina operasiyalar asasan politralar orqali bajariladi. Ekranda ko‘p joy egalamasligi uchun politralar o‘zaro guruhlarga biriktirilgan:

**Navigator/Info** (Boshqaruv/Informasiya), **Color /Swatches/ Styles** (Rang/ Namuna/ Uslublar), **History/Actions/Tool Presets** (Tarixi /Xarakatlar /Uskunalar tanlash), **Layers/ Channels/Paths** (Qatlamlar/Kanallar/Konturlar). **Character/Paragraph** (Shrift/ Abzas).

#### **Palitralar (palitri)**

Photoshop dasturida ko‘p operasiyalar palitralar orqali bajariladi ularni o‘zaro aralashtirish xam mumkin. Istalgan palitrani ochish uchun esa **Okno** (Window) menu komandasidan amalga oshiriladi.

Belgilangan palitra boshqa shu guruhga kiruvchi politralardan eng yuqorida avtomatik tarizda joylashadi.

*Photoshop dasturidan chiqish:* Windows Operasion dasturida bu dastur oynasini yopish uchun Fayl>Vixod (**File > Exit**) menyusidan ko‘rsatilgan komandani tanlang yoki (**Ctrl+Q**) tugmalar kombinasiyasini bosing

#### **Nazorat savollari:**

1. Adobe Photoshop CS dasturi qanday ishga tushiriladi?
2. Adobe Photoshop CS dasturining asosiy menyusi nimalardan tashkil topgan?
3. Opsiylar paneli nima uchun ishlatiladi?
4. Palitra operasiyalarini orqali nima bajarish mumkin?

#### **2- Amaliy mashg‘ulot.**

#### **Adobe Photoshop dasturida tasvir va rasm bilan ishlash**

*Ishning maqsadi:* Skaner orqali olingen tasvirni o‘zgartirish va uskunalar paneli orqali tasvirni yaratish .

#### **Vazifa:**

1. Brush uskunalari bilan tanishish.
2. Brush uskunasi yordamida tasvirga shtrixlar va o‘zgartirishlar kiritish.
3. Matnli xujjat yaratish.

#### **Nazariy qism.**


Adobe Photoshop Windows muhitida ishlovchi Macintosh va IBM PC kompyuterlari uchun mo‘ljallangan elektron ko‘rinishdagi foto tasvirlarni tahrirlovchi dasturdir. Adobe Photoshop dasturi Adobe System, Inc kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlatishdagi alohida qulayliklari bilan mashhur.

Adobe Photoshop tasvir tahrirlagichi yordamida fotosuratlarga qo‘srimchalar kirish, fotosuratdagi dog‘larni o‘chirish, eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash. Rasmlarga matn kiritish qo‘srimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni ikkinchi fotosuratga olib o‘tish, suratdagi ranglarni o‘zgartirish, almashtirish mumkin. Adobe Photoshop imkoniyatlari keng qamrovli bo‘lib, u gazeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda juda katta qulayliklar yaratadi.

Adobe Photoshop ayniqsa jurnalistlarning, rassomlarning, teatr sohasidagi xodimlarni ijodiy imkoniyatlarini to‘la amalga oshirishlarida yordam beradi. Jurnalistika va bevosita

matbuot yoki nashriyot sohasiga aloqador bo‘lgan shaxslarning mazkur dastur bilan ishlashni bilishi uchun qo‘srimcha imkoniyatlarni yaratib beradi.

Adobe Photoshop tasvir tahrirlagichi juda murakkab dasturdir. Foydalanuvchilar uning asosiy imkoniyatlaridagina foydalanadilar xolos. Opsiylar panelida **Brush** (mo‘yqalam) mo‘yqalami uslubini tanlash uchun strelkasi ustiga bosing( 2.1- rasm). Har bir piktogramma ustidagi raqamlar mo‘yqalamni qalinligini piksellarda ko‘rsatadi. Agar siz istalgan mo‘yqalam ustiga olib borsangiz shu mo‘yqalamning qalinligi va turi xaqida ma’lumot chiqadi. (Boshqa turdagi mo‘yqalamlarni tanlash uchun 12-chi qismda keltirilib o‘tilgan «Mo‘yqalamlar kutubxonasini yuklash (Zagruzka biblioteki kistey)»). Mo‘yqalam panelini yopish uchun paneldan tashqaridagi ekranning istalgan joyga bosing va avtomatik tarizda panel yopildi.



**2.1-rasm.** Mo‘yqalam shaklini tanlash paneli

**Mode** (Aralashtirish rijimi ( Rejim smeshivaniya )) bo‘limini tanlang, xamda **Opacity** (Shafofsizlik (Neprozrachnost)) bo‘limini foyz ko‘rsakichida **Brush** (Kist) uskunasi uchun tanlang (2.2-rasm) qarang. Agar ko‘rsatilgan qisim parametri 100% ni tashkil qilsa mo‘yqalam shtrixi pastki piksellarni mutloq qoplaydi.

**Eslatma:** Faqatgina shaffof bo‘lmagan qatlamlarni rangini o‘zgartirish uchun **Layers** (Qatlam(Sloi)) palitrasidagi **Lock transparent pixels** (Zafiksirovat prozrachniye tochki) ustiga bayroqchani o‘rnating.



**2.2-rasm.** Opacity parametirini belgilash


Photoshop 7.0 dasturi yordamida siz birqancha standart mo‘yqalamlar yoki o‘zingiz o‘lchamlari va ko‘rinishini kiritgan xolda juda qiziqarli rassomchilik ishlarini amalga oshirishingiz mumkin(2.3- rasm).

Rasmlar bilan ishlash uchun yangi prosessor o‘ta qiziqarli bo‘lgan rasmlarni yaratish imkonini beradi. Photoshop 7.0 dasturida standart va avvaldan foydalanuvchi kiritgan rasmlarni nusxalab unga sayqal berish shu bilan birga tasvirga xo‘l va quruq mo‘yqalam usullarida bezak berish mumkin. Mo‘yqalam paketiga barg va o‘tlarni tasvirini yaratadigan maxsus effekt mo‘yqalamlari kitildi. Maxsus original tasvirlarni yaratish uchun skanerdan o‘tkazilgan rasm va tekstlarni orqa fon sifatida shaffof ko‘rinishda tasvirga kiritish mumkin. Photoshop 7 dasturi prosessori faqat yangi tasvir yaratish imkoniyatlar bilan cheklanib qolmay balki, boshqaruvning sodalashganligi e’tiborga olingan.



**2.3-rasm.** Har xil turdag'i mo'yqalamlar bilan Brush uskunasi bilash chizilgan chiziqlar.

*Mavjud bo'lgan mo'yqalamni o'zgartirish(Izmeneniye sushestvuyushey kisti)*



**2.4-rasm.** Brush Tip Shape bo'limini tanlash.

Photoshop dasturiga qo'shimcha sifatida mo'yqalamlar ombori xam beriladi va siz u yerdan istalgan mo'yqalamni tanlab uni xoxishingizga ko'ra o'zgartirish (modifikasiya) qilishingiz mumkin.

Opsiylar panelidan **Brushes** (Mo'yqalam(Kist)) tugmasiga bosing undagi menyudan **Brush Tip Shape - sm.** 2.4- rasm bo'limini tanlang.

